

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o‘rganish ICESCO kafedrasi, tarix fanlari nomzodi, dotsent D. Murotov taqrizi ostida

Klassik islom manbalarida hadis ustoziga qo‘yilgan talablarning yoritilishi

Mahmudova Odina Obiddin qizi

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Islomshunoslik mutaxassisligi magistri

+998994862610, odinamahmudova121@gmail.com

Annotatsiya: Klassik islom manbalarida xususan, Xatib Bag‘dodiyning “Al-Jome” Romahurmuziyning “Al-Muhaddis al-fosil”, Abdulkarim Sam‘oniyning “Al-Imlo val-istimlo” kabi asarlarda asosan ustoz-shogirdga tegishli odoblar, ta‘lim berish va olish uslublari haqida ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan. Ushbu maqolada yuqorida keltirib o‘tilgan asarlardan Xatib Bagdodiyning “Al-Jome” asarida keltirilgan hadis rivoyat qiluvchi shayxga tegishli bo‘lgan odob-axloq qoidalari keng yoritilgan. Asarning ahamiyatli jihati shundaki, hadis rivoyat qiluvchi shayxning amal qilishi lozim bo‘lgan har bir odobi haqida oyat, hadis yoki biror rivoyat keltiriladi.

Kalit so‘zlar: “Al-Jome”, muhaddis, hadis, odob-axloq.

Kirish

Har qanday ilmni o‘rganishni niyat qilgan kishi ustozga ehtiyoj sezadi va egallamoqchi bo‘lgan ilmni puxta egallashida “Ustoz-shogird” metodologiyasidan foydalanish eng samarilisi hisoblanadi. Ilm olishlikda ustozlar tolib uchun to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatuvchi yo‘lchi yulduz vazifasini bajarishadi. Chunonchi, muhaddis Hasan Basriy “Olimlar bo‘lmaganda odamlar hayvonlardek bo‘lib qolishardi. Olimlar yulduzlarga o‘xshaydi. Agar ko‘rinib tursa, odamlar ular yordami bilan o‘zlariga yo‘l topishadi. Agar ular ko‘zdan yo‘qolib, o‘zlari zulmatda qolishsa, qayoqqa yurishni bilmay hayron qolishadi”¹ degan.

Materiallar va uslublar. Xatib Bag‘dodiy o‘z asarida muhaddisni hadis rivoyat qilishiga doir bir qancha odob axloq qoidalarini keltirib o‘tadi. Eng avvalo, hadis rivoyat qilishni niyat qilgan roviy niyatiga e‘tiborli bo‘lishi va bunda Allohdan mukofot umidvor bo‘lishi kerak. Anas r.a. dan rivoyat qilinadi: “Rosululloh (s.a.v.) shunday dedilar: Alloh so‘zni amal bilan qabul qiladi, so‘z va amalni esa niyat bilan qabul qiladi. Niyat bilan bo‘lgan so‘z va amalni faqat sunnatni egallash bilan qabul qiladi”.² Hadis olimlari har bir ishda niyat bo‘lishi kerak ekanligini, hatto uyqu va taomlanishda ham niyat kerakligini ta‘kidlashgan. To‘g‘ri niyat qilishlik roviyning qalbini riyo va shuhratparastlikdan tozalaydi³. Chunonchi, muhaddis Sufyon Savriy shunday degan: “Men niyatimni to‘g‘irlashdek qiyin ishni bilmayman”⁴.

Har qanday muhaddis ta‘lim berar ekan agar shahrida yoki boshqa bir joyda rivoyatda o‘zidan ham kuchli roviy borligini bilsa, hadis toliblarini unga yo‘llashi kerak bo‘ladi. Chunki muhaddislar ilmda kim o‘zarga emas balki, hadis toliblarining ilmda kamoloti uchun harakat qilishlari kerak bo‘ladi. Imom Shihob Zuhriy shunday rivoyat qiladi: “Sa‘lab ibn Abu Suayrning

¹ Tursun Ahmad. Muhammad Hasan Basriy. – Toshkent: Qaqnus media, 2019. – B. 55.

² Xatib Bag‘dodiy. Al-Jome’ li-axloq ar-roviy va adab as-some’. – Bayrut: Muassasat ar-risola, 1996. – J. 1. – B. 491.

³ Muhammad ibn Abdurahmon Saxoviy. Fathul maiz – Bayrut: Dor ul Manhaj, 2008. – B. 273.

⁴ Abdurahmon Romahurmuziy. Al-Fasil bayna ar-roviy val va‘iy. – Bayrut: Muassasat ar-risola, 2017. – B. 37.

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

oldiga o'tirdim. U menga: "Ilmni yaxshi ko'radiganga o'xshaysan" dedi. Men: "Ha" deb javob berdim. U: "Unda sen mana bu shayxni lozim tut" deb, Said ibn Musayyibni ko'rsatdi⁵. "Tahzib al-Tahzib" asarida yuqoridagi hadisda keltirilgan roviy Sa'lab ibn Abu Suayrning Payg'ambar a.s.dan faqat bir dona hadis rivoyat qilgani keltirilgan va u o'zidan rivoyatda kuchli bo'lgan muhaddisga Said ibn Musayyibga toliblarni yo'llagan⁶. Ahmad ibn Hanbal esa oldiga hadis talabida kelgan kishilarni muhaddis Abu Osim hayot bo'lganligi uchun unga jo'natgan. Abu Osim Nabil Basriy katta muhaddislardan bo'lib, Yazid ibn Abu Ubayd, Sulaymon Taymiy, Ibn Jurayj, va Avzoiylardan hadis rivoyat qilgan va u kishidan Ahmad ibn Hanbal, ibn Rohavayh, Ali ibn Madiniylar hadis rivoyat qilishgan. U ishonchli, ko'p hadis rivoyat qilgan va zohid kishi bo'lgan.

Shuningdek, boshqa muhaddislar ham ushbu qoidaga amal qilishgan. Hatto, Yahyo ibn Main shahrida hadis aytishlikda munosibroq bir kishi bo'la turib o'zi hadis aytishlikni ahmoqlik degan. Sufyon Savriy esa Sufyon Uyaynadan nega hadis aytmayotganini so'raganda: "Sen hayot bo'la turib men gapiramanmi?" degan.⁷ Yohud Ibrohim Naxaiy va Sha'biy bir joyda o'tirishsa Ibrohim Naxaiy sunnat haqida bir og'iz so'z demagan. Mo'tamar ibn Sulaymon esa bizga hadis aytayotganda Ibn Muborak kelib qolsa, darrov hadisni aytishdan to'xtar edi va: "Katta shayxlaringizni oldida gapirmayman" der edi⁸. Bundan ma'lum bo'ladiki, roviy o'zidan olimroq muhaddisni ko'rsa uning huzurida jim turishligi va tavozeli bo'lishi kerak.

Shuningdek, muhaddislar hadisni izlamagan, uni zoye qiladigan va hadis ahlidan bo'lmagan kishilarga hadis aytishdan qaytarishgan va bu "al-Jome" asarida keng yoritilgan. Xususan, muhaddis Masruq shunday deydi: "Hadisni baxtsiz qiladigan xislat bu hadisda yolg'on ishlatishdir, uning ofati unutishdir, uni zoye ketkazish esa hadisni unga loyiq bo'lmagan kishiga aytishdir."⁹

Yohud Abu Qalobo hadisni bilmagan kishiga aytishdan qaytargan. Chunki uni bilmagan kishi undan hech qanday manfaat olmaydi deb hisoblashgan¹⁰. Muhaddislar hatto hadisni xohlamagan kishini ovqatga ishtahasi yoq kishi kabi deyishgan va ularga hadis rivoyat qilishdan qaytarishgan. Shuningdek, muhaddis A'mash hadisni hadis ahlidan bo'lmagan kishilarga rivoyat qilishni xuddi to'ng'izga marjon taqishdek ish deb aytgan¹¹. Bundan ma'lum bo'ladiki, har qanday ilmni unga loyiq bo'lgan kishiga aytish kerak. Aks holda, u ilmni o'z o'rnida ishlatmasligi, nafaqat o'zi balki, boshqalar ham bundan manfaat olmasligi mumkin.

Shu barobarida, ilmni uni istagan va unga rag'bat qilgan kishilarga berish manfaat olishning haqqidir. Chunki, muhaddislar agar tolibda dangasalik va zaiflikni ko'rishsa, unga hadis rivoyat qilishdan darrov to'xtashgan. Muhaddis Abu Ahvos Abdulloh ibn Mas'uddan rivoyat qiladi: "Hadis rivoyat qilayotgan qavmingizni qalbiga qarang. Agar qalbini hadisdan uzoqlashganini

⁵ Xatib Bag'dodiy. Al-Jome' li-axloq ar-roviy va adab as-some'. – Bayrut: Muassasat ar-risola, 1996. – J. 1. – B. 494.

⁶ Hajar Asqaloniy. Tahzib al tahzib – Qohira: Dor ul Maorif, 2016. – J. 2. – B. 23-24.

⁷ Xatib Bag'dodiy. Al-Jome' li-axloq ar-roviy va adab as-some'. – Bayrut: Muassasat ar-risola, 1996. – J. 1. – B. 498-499.

⁸ Xatib Bag'dodiy. Al-Jome' li-axloq ar-roviy va adab as-some'. – Bayrut: Muassasat ar-risola, 1996. – J. 1. – B. 503-504.

⁹ Xatib Bag'dodiy. Al-Jome' li-axloq ar-roviy va adab as-some'. – Bayrut: Muassasat ar-risola, 1996. – J. 1. – B. 514.

¹⁰ Ibn Abd Bar. Jome' bayna al-ilm va fadluhu – Qohira: Dor ul Maorif, 2007. – B. 111.

¹¹ Xatib Bag'dodiy. Al-Jome' li-axloq ar-roviy va adab as-some'. – Bayrut: Muassasat ar-risola, 1996. – J. 1. – B. 516.

ko‘rsangiz rivoyat qilishdan to‘xtang.” “Qalblarini uzoqlashganini alomati nima?” deb so‘rashdi. U: “Ko‘zlariga diqqat bilan qarang, agar esnagan holda bir biriga suyanib o‘tirishsa, ularning qalblari uzoqlashgan bo‘ladi, ularga hadis aytimgan” degan¹². Shuningdek, muhaddis kishilarni qabul qila olish darajasiga ham e‘tiborli bo‘lishi kerak. Chunki, aql darajasi ko‘tara olganucha hadis aytishi kerak bo‘ladi. Imom Abu Oliyadan rivoyat qilinadi: “Kishilarga ular ko‘tara olganucha hadis aytinglar” dedi. “Ko‘tara olishning ma‘nosi haqida so‘rashganda, u: “G‘ayratlarini yo‘qotguniga qadar” dedi¹³. Shuning uchun ham muhaddis hadis eshituvchilarning holidan ham xabardor bo‘lishi kerak. Shuningdek, Mashhur faylasuf va mutafakkir, qomusiy ilmlar bilimdoni Abu Nasr Farobiy ustoz-murabbiyga shunday talab qo‘yadi: Ustoz o‘z shogirdlariga qattiq zulm ham, haddan tashqari ko‘ngilchanlik ham qilmasligi lozim. Chunki, ortiqcha zulm shogirdga ustozga nisbatan nafrat uyg‘otadi, bordiyu ustoz juda yumshoq bo‘lsa, shogird uni mensimay qo‘yadi va u beradigan bilimdan sovib ham qolishi mumkin¹⁴.

Shuningdek, muhaddislar ahli bid‘adan bo‘lgan qadariy, jahmiy, murjiylarga ham hadis rivoyat qilishmagan. Ishonchli muhaddislardan bo‘lgan Ya‘lo ibn Ubayd majlisida bir kishi keldi va undan hadis aytishini so‘radi. Ya‘lo ibn Ubayd unga hadis aytishga va‘da berdi. U kishi turib ketgandan so‘ng, uning jahmiy ekanligini aytishadi. Ya‘lo ibn Ubayd: “Mening majlisimga jahmiy keldimi? Allohdan o‘zga iloh yo‘q, uni jahmiy ekanligini bilganimda hadis aytmas edim. Hatto u qavmning ichida bo‘lsa ham hadis aytmayman” degan¹⁵.

Shu barobarida, “Al-Jome’” asarining “Rivoyatida yolg‘on ishlatgan kishiga hadis aytishni tark qilish” bobida esa muhaddislar yolg‘onchiligi ma‘lum bo‘lgan kishilarga hadis aytishdan va ularning rivoyatlarini tinglashdan qaytarishgan. Muhaddis Kasir ibn Murroddan rivoyat qilinadi: “Nodonlarning oldida haqni gapirma ular seni yolg‘on gapirayotganda ayblashadi, olimlarning oldida botilni gapirma ular seni yomon ko‘rishadi¹⁶. Haqiqatdan ham rivoyatlarda yolg‘on ishlatuvchi kishilar haq bo‘lgan rivoyatlarni qabul qilishmaydi. Buning aksi bo‘lgan ishonchli roviylarning oldida esa yolg‘on ishlatilsa ular darrov sezishadi. Ushbu bobda muhaddislarning hatto, sultonlik maqomida bo‘lgan kishilarga ham hadis aytishmaganligi rivoyatlari keladi. Bunga sabab esa sultonlarning o‘z manfaatlari yo‘lida to‘qima hadislardan foydalanishliklaridir.

“Al-Jome’” asarining 21-bobi “Muhaddislarning hadis rivoyati uchun haq olishdan qaytarish” deb nomlanib, ushbu bobda hadis rivoyat qiluvchi muhaddislarning taqvoli va hadis evaziga haq olishdan hazar qilganliklari haqida quyidagicha rivoyatlar keladi. Umar r.a. shunday degan: “Ey, ahli ilm va qur‘on, ilm va Qur‘on uchun pul olmanglar. Faqirlik sizdan o‘zib jannatga kiradi”¹⁷. Yuqorida ta‘kidlanganidek, ilmlarning eng oliylaridan bo‘lmish hadis ilmi bilan shug‘ullangan muhaddislar mehnati evaziga Allohdan ajr mukofotni kutishliklari kerakdir. Boylik orttirish yo‘lida ushbu ilm shug‘ullanish esa gunoh ishlardan hisoblanadi. Abu Umar ibn Azroq shunday deydi: Ibn Uyaynani Abu Nasrga shunday deganini eshitdim: “Ibn Shubruma senga har oy

¹² Abdurahmon Romahurmuziy. Al-Fasil bayna ar-rovii val va‘iy. – Bayrut: Muassasat ar-risola, 2017. – B. 841.

¹³ Xatib Bag‘dodiy. Al-Jome’ li-axloq ar-rovii va adab as-some’. – Bayrut: Muassasat ar-risola, 1996. – J. 1. – B. 519.

¹⁴ D. Malikova. Sharq mamlakatlarida “ustoz-shogird”lik an‘analarining shakllanishi va rivojlanishi. Maqola.Science and Education. Scientific Journal / ISSN 2181-0842 April 2022.

¹⁵ Xatib Bag‘dodiy. Al-Jome’ li-axloq ar-rovii va adab as-some’. – Bayrut: Muassasat ar-risola, 1996. – J. 1. – B. 525.

¹⁶ Xatib Bag‘dodiy. Al-Jome’ li-axloq ar-rovii va adab as-some’. – Bayrut: Muassasat ar-risola, 1996. – J. 1. – B. 562.

¹⁷ Xatib Bag‘dodiy. Al-Jome’ li-axloq ar-rovii va adab as-some’. – Bayrut: Muassasat ar-risola, 1996. – J. 1. – B. 561.

musulmonlarining pulidan maosh tayinlaganda sen uni musulmonlarning pulidan ekanligini bilib, rad etganingdan beri seni yaxshi ko‘raman.” Ushbu rivoyatdan ma‘lum bo‘ladiki Imom Abu Nasr musulmonlardan yig‘ilgan haqni olishdan o‘z nafsini qaytargan va buni Ibn Uyayna eng maqbul ishlardan sanagan. Yana bir rivoyatda muhaddis Avzoiyga toliblari sovg‘a berganda Avzoiy ularga shunday degan: “Sizlarda tanlov bor: xohlasangiz, sovg‘angizni qabul qilaman va hadis aytmayman. Yoki, hadis aytaman va sovg‘angizni qaytaraman”¹⁸. Hadis rivoyat qilishda muhaddislar riyo, dunyo muhabbati kabi xislatlardan yiroq turishgan.

Shuningdek, hadis roviylari toliblarning mehnatidan o‘z hojatlari yuzasidan foydalanishdan qaytarilganlar. “Al-Jome” asarining “Hadis eshituvchisini muhaddis o‘z yumushi bilan band qilib qo‘yishdan qo‘rqishi” bobida ishonchli muhaddis Mansur ibn Mo‘tamir o‘z ehtiyoji uchun hech kimdan yordam so‘ramagan va hatto toliblarni o‘zi bilan birga yo‘lda sayr qilishga ham chaqirmagan. Ma‘lumki, sayr vaqti muhaddisning tolibiga ilm ulashishi uchun eng yaxshi fursatdir. Muhaddislar hatto shu ishda ham tolibni o‘z yumushi bilan band qilib qo‘yishlikdan qo‘rqan. Faqih Ahmad ibn Hanbaldan rivoyat qilinadi: “Bir shayx muhaddis Abdullohning qo‘lida qo‘tirni ko‘radi va dori beradi. Muhaddis dorini olib, so‘ng qaytarib berdi. Shayx nega qaytarganligini so‘raganda Abdulloh: “Sen mendan hadis eshituvchisan” deydi. Ba‘zi rivoyatlarda esa muhaddislar dars xalqalarida hozir bo‘lgan o‘quvchilarning qo‘lidan suv ham ichishmagan ekan¹⁹. Bu rivoyatlar muhaddislarning chin taqvodor bo‘lgan ekanliglarining yaqqol isbotidir.

Natijalar va Muhokamalar. Muhaddis ilmni va o‘z obro‘cini doim yuqori tutishligi kerak bo‘ladi. Chunki ilm bilan martabalar yuqori bo‘ladi. Shu sababdan, uni xor qilmaslik kerak. Chunonchi, Imom Buxoriy aytganlaridek, “Ilm kelmaydi, ilmga yurib boriladi”. Hadis ilmiga bag‘ishlab yozilgan kitoblarda ham toliblarni muhaddislar huzuriga borib ilmni olishlikda haris bo‘lishlikka undaladi va muhaddislar toliblarning huzuriga borib ta‘lim berishdan qaytarilgan. Zero, Imom Shihob Zuhriy shunday degan: “Ilmni xor qilishlik va past sanashlik, uni ta‘lim oluvchilarning uyiga olib borishlik bilan bo‘ladi”²⁰. Uyiga kelib hadis aytishini so‘rab kelgan kishilarga muhaddislar majlislariga ishora qilib, “Hadis shu yerda” deb koyib berishgan. Hatto muhaddislarning o‘zlari ham boshqa muhaddislarning huzuriga borib hadis eshitishgan yohud hadis kitoblarini o‘qib berishgan. Bunga misol, muhaddis Abu Ubayda mashhur “G‘arib ul hadis” kitobini har kuni Ali ibn Madiniy va Abbas Anbariylarning huzuriga qatnab o‘qib eshittirgan²¹.

Hadis kitoblarida muhaddisning tashqi ko‘rinishiga doir bir qancha tavsiyalar ham berib o‘tilgan. Masalan kiyimlarini ozoda saqlashi, saramjon bo‘lishi kabi. “Al-Jome” asarining “Muhaddis ust boshini to‘g‘irlashi kerakligi” bobida Qur‘on va sunnatga mos ravishda tozalikka rioya qilishi kerakligi tavsiya qilinadi. Chunki, Payg‘ambar a.s. dan qilingan rivoyatda: “Alloh pokdir va poklikni yaxshi ko‘radi” deyiladi²². Yohud boshqa bir hadisda “Alloh go‘zaldir va

¹⁸ Abdulloh Isfahoniy. Hilyat ul avliyo. – Bayrut: Muassasat ar-risola, 1996. – B. 143.

¹⁹ Xatib Bag‘dodiy. Al-Jome‘ li-axloq ar-roviviy va adab as-some‘. – Bayrut: Muassasat ar-risola, 1996. – J. 1. – B. 581.

²⁰ Xatib Bag‘dodiy. Al-Jome‘ li-axloq ar-roviviy va adab as-some‘. – Bayrut: Muassasat ar-risola, 1996. – J. 1. – B. 582.

²¹ Shamsuddin Zahabiy. Tazkirot ul huffoz – Bayrut: Doirot al Maorif al Usmoniyya, 2006.– B. 524.

²² Xatib Bag‘dodiy. Al-Jome‘ li-axloq ar-roviviy va adab as-some‘. – Bayrut: Muassasat ar-risola, 1996. – J. 1. – B. 586.

go‘zallikni yaxshi ko‘radi” deyiladi²³. Shunday ekan, muhaddislarga ham Allohning sifatleri va Payg‘ambarining xulqi bilan xulqlanish lozim bo‘ladi. Sunnatga ko‘ra esa, hadisi sharifda “Misvoq fasohatni oshiradi” deb marhamat qilingan, shu bois, muhaddis misvoqni o‘ziga lozim tutishi kerak. Shuningdek, tirnoqlari o‘sgan bo‘lsa uni qisqartirishi kerak chunki hadisda shunday marhamat qilinadi: “Soqollaringizni hilol qilinglar va tirnoqlaringizni qisqartiringlar, chunki shayton tirnoq va go‘sh torasida bo‘ladi”²⁴. Yohud Payg‘ambar a.s. kiyimini toza tutmagan kishini tanqid qilganliklari har bir musulmon kishi, ayniqsa, hadis ilmi bilan shug‘ullanuvchi kishiga tozalikka rioya qilishlik eng muhim yumushlardan biri hisoblanadi. Shuningdek, Payg‘ambar a.s. taomni hidi kelib turgan kishiga ovqatdan so‘ng qo‘llarini yuvmaganligi haqida so‘raydi²⁵. Bundan ma‘lum bo‘ladiki, musulmon kishi har narsaga diqqatli bo‘lishi kerak. Musulmon kishiga sunnatga muvofiq sochini xinaga, zafaronga bo‘yashi tavsiya etiladi. Chunki, Abu Bakr, Umar r.a.larning ushbularga bo‘yaganliklari va qora rangga bo‘yashdan qaytarilganligi haqida hadislar kelgan. Ushbu bobning eng muhim qismlaridan biri muhaddislarning kiyimlariga oid rivoyatlar bo‘lib, Payg‘ambar a.s. Alloh taolo ato qilgan mol davlatdan musulmon kishi shunga mos ravishda kiyinishga da‘vat qilganliklaridir²⁶. Shuningdek, Yahyo ibn Muhammad Shahiyd shunday deydi: “Yahyo ibn Main kabi chiroyli kiyingan kishini ko‘rmaganman”. Bundan islom dinining targ‘ib qilgan yana bir muhim targ‘ibotlaridan biri bu go‘zal va tartibli kiyinish ekanligi ma‘lum bo‘ladi. Hatto Payg‘ambar a.s.ning Samuro ibn Jundub r.a.ga bergan tavsiyalariga ko‘ra oq kiyimni kiyishlik afzal, chunki oq kiyimni Payg‘ambar a.s. pok va yaxshi deb tariflaganlar²⁷.

Xulosa

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, “Ustoz-shogird” an‘analari umuminsoniy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, u ilm talab qilgan shogirdning kamolotini shakllantirishga yo‘nalganligi bilan ahamiyatlidir. Shunday ekan, har qanday sohada, xususan, hadis ilmida ham ta‘lim berishlikda ustozning o‘rni beqiyosdir. Muhaddis va shayxlarning Qur‘on va sunnatga mos ravishda xulqlanishi, ta‘lim berishi, qaytariqlarga rioya qilishi bu ilmni qabul qilib oluvchi hadis tolibining kamolotida muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xatib Bag‘dodiy. Al-Jome‘ li-axloq ar-rovii va adab as-some‘. – Bayrut: Muassasat ar-risola, 1996. – J. 1. 635 b.
2. Tursun Ahmad. Muhammad Hasan Basriy. – Toshkent: Qaqnus media, 2019. –150 b.
3. Muhammad ibn Abdurahmon Saxoviy. Fathul maiz – Bayrut: Dor ul Manhaj, 2008. – 450 b.
4. Abdurahmon Romahurmuziy. Al-Fasil bayna ar-rovii val va‘iy. – Bayrut: Muassasat ar-risola, 2017. – 432 b.
5. Hajar Asqaloniy. Tahzib al tahzib – Qohira: Dor ul Maorif, 2016. – J. 2. – 375 b.
6. Ibn Abd Bar. Jome‘ bayna al-ilm va fadluhu – Qohira: Dor ul Maorif, 2007. – 547 b.
7. Jaloliddin Suyutiy. Jome us sag‘ir. – Bayrut: Muassasat ar-risola, 2006. – J. 2. – 564 b.

²³ Xatib Bag‘dodiy. Al-Jome‘ li-axloq ar-rovii va adab as-some‘. – Bayrut: Muassasat ar-risola, 1996. – J. 1. – B. 587.

²⁴ Jaloliddin Suyutiy. Jome us sag‘ir. – Bayrut: Muassasat ar-risola, 2006. – J. 2. – B. 4.

²⁵ Abu Bakr Haysamiy. Majma‘ ul zavoid – Bayrut: Muassasat ar-risola, 2006. – J. 5. – B. 30.

²⁶ Xatib Bag‘dodiy. Al-Jome‘ li-axloq ar-rovii va adab as-some‘. – Bayrut: Muassasat ar-risola, 1996. – J. 1. – B. 601.

²⁷ Xatib Bag‘dodiy. Al-Jome‘ li-axloq ar-rovii va adab as-some‘. – Bayrut: Muassasat ar-risola, 1996. – J. 1. – B. 600.